

CHET TILINI O'RGANISHDA MASOFAVIY TA'LIMNING O'RNI

Xoldorov Xudoyberdi Xasanboy o'g'li

Farg'onan politexnika institute

ANNOTATSIYA

Xozirgi kunda hayotimizni texnikalarsiz tasavvur qilish qiyin turli sohalarda ish olib borish kompyuter texnologiyalar asosida amalga oshirilib kelinmoqda xattoki chet tilini o'rganishimiz uchun masofaviy tarzda ta'lim olish yo'lga qo'yilgan. Ushbu maqolada chet tilini o'rganishda masofaviy ta'limning o'rni uning bizga bo'lgan foydali tomonlari keng yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Kompyuter, LMS, axborot, masofaviy ta'lim, modul, texnologiya.

XXI asr texnologiyalar asri sifatida o'zining ajoyibotlari bilan dunyo ahlini hayratga solib ulgurdi. Internet tarmog'i yaratilgandan so'ng imkoniyatlar ko'lami yanada kengaydi. Jamiyatimiz bugun XXI-asrga qadam qo'ydi. Yangi asr bu butun jaxon tomonidan "Axborot va axborotlashtirish" asri deb e'lon qilindi. Bugun biz o'z uyimizda yoki o'qish joyimizda o'tirib dunyoning u tarafidagi yaqinlarimiz bilan suhbatlashishimiz, ularning holidan xabardor bo'lishimiz mumkin. Buning uchun esa bizdan deyarli vaqt talab etilmaydi. Go'yoki biz o'zimizni ular bilan yuzma-yuz o'tirib suhbatlashayotganday his qilamiz. Bularning barchasi bir tarafdan olib qaralganda mo'jizaning o'zginasidir. Respublikamiz 1991-yil o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng davlatimiz va uning fuqarolari oldida turgan birdan-bir vazifa shu ediki: qo'lga kiritilgan ushbu mustaqillikni mustaxkamlash, uni qo'lidan chiqarmaslik hamda davlatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishiga erishish.

Ta'lim jamiyatning gullab-yashnashi va aholining madaniylashishi uchun muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni uchun qulay va samarali dasturlar ishlab chiqishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. So'nggi yillarda G'arbda ta'lim tizimini boshqarishda qo'llanib kelinayotgan Internet yoki Intranet tarmog'i orqali elektron shakldagi ta'lim turi **Elearning** (elektron ta'lim) atamasi bilan kirib keldi. Elektron ta'lim-axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta'limning turli ko'rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir.

LMS/LCMS at tash tizimlari elektron ta'limni (masofaviy ta'lim jarayonini) tashkil etishning asosiy funksiyalarini o'z ichiga oladi. Bunday funksiyalar qatoriga o'quvchilarning (o'qituvchilarning, kurs yaratuvchi pedagoglarni va boshqalarni) ro'yxatga olish, foydalanuvchilarni o'quv kurslardan chetlashtirish, o'quvchilarning

mustaqil ta’lim olish muhitini yaratish, o‘quvchi va o‘qituvchilarining o‘zaro individual yoki guruh bo‘lib, hamkorlikda ishlashini tashkil etish, guruhlar yaratish va ularni boshqarish, oraliq, joriy va yakuniy nazoratlarni tashkillashtirish va elektron nazorat turlarini yaratish, har xil turdagи ijtimoiy so‘rovlarni tashkillashtirish, o‘quvchilarining bilim darajasini monitoring qilish, sertifikatlar berish imkoniyati, elektron axborot resurslarini tashkillashtirish, elektron o‘quv resurslarini eksport/import qilish imkoniyatlari, tizim foydalanuvchilarining tizimga qachon, qancha vaqt davomida o‘quv kontentlar bilan tanishganligi, qaysi IP-manzil orqali kirganligini, brauzer va qaysi operatsion tizim orqali kirganligi, tizimda mavjud foydalanuvchilarining faolligini maxsus grafiklar orqali monitoring qilish imkoniyati, o‘qituvchi tomonidan elektron o‘quv-resurslarini yaratishi, o‘quv jarayonida bo‘ladigan yangiliklarni barcha foydalanuvchilarga ommaviy xabar yuborib turuvchi modullarning mavjudligi, iqtisodiy va marketingga oid operatsiyalarni boshqarish va boshqa imkoniyatlarni sanab o‘tish mumkin.

Ushbu dastur tizimi orqali bir joyda turib ikkinchi bir olis masofadagi ta’lim muassasasining ma’ruzalarini tinglash mumkin. Hattoki, chet mamlakatda turib xuddi shu oliygohning diplomini ham olish mumkin. Bunda, asosan, internet muhim o‘rin tutadi va u orqali o‘z hujjatlarimizni tanlangan universitetning IP-manziliga jo‘natamiz. Shundan so‘ng, hujjatlarimiz qabul qilinganidan xabar topgach ta’lim muassasasining hisob raqamiga tegishli mablag‘ni tushurib yuboramiz. Ular bizning bo‘sh vaqtimizga qarab dars vaqtini ishlab chiqadi.

Buning afzallik tomoni shundaki, biz o‘zimiz istiqomat qilayotgan mamlakatni tark etmasdan turib dunyoning istalgan oliygohida ta’lim olishimiz mumkin bo‘ladi. Darslar va ma’ruzalar esa xuddi o‘sha auditoriyada o‘tirgandek bo‘lib o‘tadi va samarali tashkillanadi.

Masofaviy ta’limning chet tilini o‘rganishdagi tutgan ahamiyati beqiyosdir. Masalan, chet tilini o‘rganishni istayotgan inson ma’lum bir korxonaning ishchi xodimi bo‘lishi mumkin. U erta tongdan to kechgacha tashkilot ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladi. Til markazlarining dars vaqt o‘z navbatida unga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Shu sababli, bu inson kechki vaqtda bo‘sh bo‘lganda internet tarmog‘iga ulanib ijtimoiy saytlarning istalgan biridan foydalangan holda ta’lim jarayonini tashkillashi mumkin bo‘ladi. Boshqaruvchi robot esa uning bilimini sinash maqsadida turli metodlardan foydalaniib ta’lim sifatini nazorat qiladi. Masofaviy ta’limning yana bir asosiy quaylik tarafi shundaki, u jismoniy nuqsonga ega nogiron insonlarga qo‘l keladi. Ularning uzoq masofalarga bora olmasligi tabiiy. Shu sababli, talim jarayonini masofadan turib tashkil qilish eng maql va samarali yo‘l hisoblanadi. Hattoki, LMS MOODLE tizimidagi ayrim darturlar jismoniy imkoniyati cheklangan insonlarga mo‘ljallangan bo‘lib, xususan, ko‘zi ojiz talabalar maxsus web-ilovalar orqali tizimga bog‘langan holda

o‘quv kontentdagi so‘zlarni audio formatga o‘tkazgan holda tinglashi mumkin. Bu esa ularga yaratilgan yana bir qulaylikdir. Xususan, Chamilo tizimida kurslarni tashkillashtirishda **sessiya** nomli qo‘srimcha moduli mavjud bo‘lib, ma’lum kurslar yakuni bo‘yicha lokal imtihon yaratish imkonini beradi. Shuningdek, hisobot bo‘limi orqali esa kurslar, imtihonlar va foydalanuvchilarining holati bo‘yicha hisobot yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. A.Parpiev, A.Marahimov, R.Hamdamov,U.Begimkulov, M.Bekmurodov, Elektron universitet. Masofaviy ta’lim texnologiyalari O‘zMU Davlat ilmiy nashriyoti.T.2008 196- bet;
2. Sh. Yusupova, F.Masharipova, Masofaviy ta’lim texnologiyalari va vositalari fanidan labaratoriya mashg‘uloti.
3. I.Iskandarova “Moodle dasturida forum va chat qilish”
4. Nodirjon Ibragimovich Otaboyev, Abbosjon Sharofidin Ogli Qosimov, & Xudoyberdi Xasanboy Ogli Xoldorov (2022). AVTOPOEZD TORMOZLANISH JARAYONINI O‘RGANISH UCHUN AVTOPOEZD TURINI TANLASH. Scientific progress, 3 (5), 87-92.